

SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING IKKI QANOTI: KLASTER TIZIMI VA RAQAMLASHTIRISH

Xudayberdiyev O'lmasjon Egamberdievich
Bozorov Ilyos Isomiddinovich

Toshkent iqtisodiyot va menejment instituti, "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti
Toshkent iqtisodiyot va menejment instituti, "Iqtisodiyot" kafedrası katta o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14899420>

Annotatsiya. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot atamasi dunyo miqyosida tobora rivojlanib borayotgan eng asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida qayta ishlash sanoati korxonalarini rivojlantirish, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda klaster tizimi asosida iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda. Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyot soha va tarmoqlarga to'liq tatbiq etilgan bo'lib, bugungi kunda o'zining yuqori darajada natijasini bermoqda.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, axborot tizimlari, elektron xizmatlar, dasturiy mahsulotlar, raqamlashgan innovatsion klasterlar.

Kirish

So'nggi yillarda, mamlakatimizda ham bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Hatto, ushbu masalani nechog'li muhimligi davlat rahbari tomonidan ham e'tirof etilib kelinmoqda. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizdagi soha va tarmoqlarni yanada rivojlantirish maqsadida, raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish borasida ko'plab yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrda —Raqamli O'zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son Farmoniga ko'ra, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab berilgan¹:

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida salkam besh yuzga yaqin axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etildi;

- iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha uch yuzdan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etildi;

- 2021 yil 1 avgustdan boshlab jismoniy va yuridik shaxslarga barcha belgilangan davlat bojlari, yig'imlar, jarimalar va boshqa majburiy to'lovlarni elektron to'lov tizimlaridan foydalangan holda onlayn rejimda to'lash imkoniyati taqdim etildi;

- qog'ozsiz elektron hujjat almashinuvi va ish yuritishni tashkil qilgan holda barcha ma'muriy tartib-tamoyillarni va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish imkoniyatlari yuzaga keldi.

Bundan ko'rinadi-ki, 2030 yilga qadar, mamlakatimizdagi barcha soha va tarmoqlar faoliyati raqamli ko'rinishda olib borish tizimi yaratiladi. Barcha xizmatlar onlayn ko'rinishda amalga oshirilib, yangi sohalarini paydo bo'lishiga turtki bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida 2030 yilga qadar qayta ishlash sanoati korxonalarida ham yuqori darajada harakatlanadigan raqamli klasterlar tizimi shakllanadi².

Qayta ishlash sanoati korxonalarini rivojlantirish bevosita raqamli iqtisodiyotga hamda raqamlashgan innovatsion klasterlarga bog'liqdir. Bugungi kunda, mamlakatimizdagi qayta ishlash sanoati korxonalarida klaster tizimini rivojlantirish yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Jumladan, klaster tizimini rivojlantirish qayta ishlash sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga, ularni ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga, xarajatlarni qisqartirishga, qayta ishlash hajmini ortishiga, korxonalararo hamkorlik munosabatlarini rivojlanishiga, innovatsion yangiliklarni joriy etilishiga hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishiga olib keladi.

Mamlakatimizda qayta ishlash sanoati sohasida hamon, zamon talablariga javob bermaydigan, eskirgan texnologiyalardan foydalanib kelinayotganligi, o'z navbatida, korxonalardagi ishlab chiqarish

samaradorligini pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday muammolarni amaliy yechimi sifatida, zamonaviy innovatsion klasterlar tizimidan samarali foydalanish va ularni amaliyotga kengroq tatbiq etish muhim hisoblanadi. Iqtisodiy soha va tarmoqlarda kundan-kunga raqamli iqtisodiyotni keng qo‘llanilishi zamon talabiga aylanib bormoqda.

Iqtisodchilarning fikriga ko‘ra, raqamli iqtisodiyotning funktsional xususiyatlari va tasniflanishi quyidagicha izohlanadi:

Raqamli texnologiyalarning takomillashib borishi, raqamli iqtisodiyotning funktsional xususiyatlarini kengaytirdi. Raqamli iqtisodiyot elektron mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish va ularni elektron tijorat orqali tarqatish asosida elektron mahsulotlarga ixtisoslashgan biznes ishlab chiqarish jarayonlarini, pul o‘tkazmalarini amalga oshiradi, shuningdek internet texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlar bilan ishlash va ularni boshqarish bilan shug‘ullanadi. Raqamli iqtisodiyot shuningdek, iqtisodiy resurslar taqchilligi sharoitida raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan va boshqariladigan iqtisodiy faoliyat nisoblanadi.

Har qanday iqtisodiy tizim oldida turgan asosiy muammo bu resurslar taqchilligi bilan bog‘liq raqamli iqtisodiyotda ham asosiy e‘tibor ushbu muammoni hal qilishga qaratilmog‘i lozim deb ta‘kidlaydi³. Bundan ko‘rinadi-ki, raqamli iqtisodiyot elektron xizmatlar sohasini takomillashtiradi. Natijada esa, qayta ishlash sanoati sohasida elektron xizmatlar ko‘rsatish faoliyati rivojlanadi. Mamlakatimizdagi qayta ishlash sanoati korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirish quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

- qayta ishlash sanoati klaster tizimini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan innovatsion yangiliklarni joriy etish;
- xarajatlarni minimallashtirish;
- raqamli iqtisodiyotning funktsional xususiyatlari va tasniflanishi, qayta ishlash sanoati korxonalarini o‘rtasida o‘zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;
- raqamli dasturlardan samarali foydalanish;
- raqamli startap texnologiyalarni tatbiq etish;
- zamonaviy kreativ fikrlaydigan kadrlar bazasini shakllantirish;
- klaster tizimidan samarali foydalanish bo‘yicha Yevropa ittifoqi, AQSh, Germaniya, Rossiya kabi davlatlar tajribasini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish;
- infratuzilma va logistika tizimidan samarali foydalanish;
- qayta ishlash sanoati korxonalarida onlayn xizmatlar va yagona elektron hujjatlar aylanmasini joriy etish kabi muhim omillarga bog‘liqdir.

Xulosa

Xotima sifatida shuni aytish joiz-ki, iqtisodiyotni raqamlashtirish barcha soha va tarmoqlarni rivojlanishini ta‘minlaydi. Onlayn xizmatlar va elektron dasturlarni takomillashtiradi. Qayta ishlash sanoati korxonalarini rivojlantirish klaster tizimiga, klaster tizimi esa raqamli iqtisodiyotga chambarchas bog‘liqdir. Raqamli iqtisodiyot rivojlansa-gina, qayta ishlash sanoati korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Raqamli iqtisodiyotni yangi imkoniyatlari korxonalarda innovatsion ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga, klaster tizimini takomillashtirishga, qayta ishlash sohasida onlayn savdo tizimini rivojlantirishga hamda iqtisodiy samaradorlikni yuqori darajada oshirishga xizmat qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, sanoat korxonalarini rivojlantirishda, klaster va raqamlashtirishni uzviyligini ta‘minlab, ularni yaxlit tarzda qo‘llash o‘zining ijobiy samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni, 2020 yil 5 oktyabr.
2. Shadmankulova Dilnoza Abdusaitovna —Raqamli iqtisodiyotning funktsional xususiyatlari va tasniflanishi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil.

³ Shadmankulova Dilnoza Abdusaitovna —Raqamli iqtisodiyotning funktsional xususiyatlari va tasniflanishi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil.